

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952668>

BELGINING ASIMMETRIK DUALIZMI

Aytbodyev Dilshodxuja Temirbayevich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professor vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari doktori (DSc)

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вопрос о соотношении формы и содержания, то есть о том, что формальная и содержательная основы знака не всегда пропорциональны друг другу, и что эта асимметрия исследуется мировыми и узбекскими лингвистами. В качестве альтернативы говорят о том, что форма и содержание находятся в диалектической связи в каждой значимой единице, что невозможно отличить выраженное от выражающего, что при определении сущности языковых единиц необходимо опираться как на формальные, так и на содержательные её аспекты.

Ключевые слова: *знак, асимметрия, отношение формы и содержания, асимметричный дуализм, омонимия, синонимия, многозначность, омонимические единицы, омосемические единицы, сема, морфема, единицы уровня, диалектное общение, языковые единицы.*

ANNOTATION

This article will focus on the relationship of form and content, that is, on the fact that the form and content of the sign are not always proportional to each other, and on the research of this asymmetry by the world and Uzbek linguists. An alternative is that form and content are in dialectical contact with each meaningful unit, that it is impossible to distinguish between the expressed and the expressive, that in determining the essence of linguistic units it is both formative and content.

Keywords: *sign, asymmetry, relationship of form and content, asymmetric dualism, homonymy, synonymy, polysemy, homonymic units, omosemantic units, sema, morpheme, sath units, dialectical communication, linguistic units.*

Tilda shunday hodisalar mavjudki, ular shakl va mazmun munosabatini chuqurroq tahlil qilishni taqozo qiladi. Xususan, omonimiya, sinonimiya hodisalari belgining shakli va mazmuni o'rtasidagi munosabatlarning murakkab xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Praga tilshunoslik maktabi vakillari fikriga ko'ra, omosemiya – bu bir elementning turli shakllar orqali ifodalanishi: masalan, *nes-u* “я несy”, *кипуј –i* “я покупаю”, *дела –т* “я делаю”; sinonimiya – mazmuni bir-biriga yaqin nomlar: *bida* “беда”, *пouze* “нужда”, *nedostatek* “нехватка”.

Vladimir Skalichkaning fikricha, belgi har doim omosemik birlik hisoblanadi, ya'ni u har doim bir mazmunni ifodalaydi. U har doim bir xil nomga ega bo'lgan omonimik birlik bilan ifodalanadi [4; 119-127].

Ko'rinadiki, Praga lingvistik to'garagiga a'zo bo'lgan olimlar belgining shakliy tomoni uchun omonimiya, mazmuniy asosi uchun omosemiya atamalarini qo'llagan holda, ular o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritib berishga harakat qiladilar. Ularning fikrlaricha, omonimik birlik chegarasi, odatda, omosemik birlik chegarasiga mos tushadi. Ayrim holatlarda omonimik birliklar hajmi omosemik birliklar hajmidan kengroq bo'lishi mumkin. Shu tarzda omonimiya va omonimik guruhi shakllanadi. Agar omosemik birlik hajmi kengroq bo'lsa, omosemiya va omosemik guruh vujudga keladi. Bunda omonimik guruh shakliy asosga, omosemik guruh esa mazmuniy asosga ega. Ko'rinadiki, shakl va mazmun chegarasi aniq belgilangan.

Demak, belgining shakliy va mazmuniy asoslari har doim ham bir-biriga mutanosib bo'lavermaydi. Bunday nomutanosiblikni Sergey Karsevskiy belgining asimmetrik dualizmi deb nomlaydi. Sergey Karsevskiyning ta'kidlashicha, belgi va mazmun bir-birini to'liq qoplamaydi. Ularning chegaralari hamma nuqtalarda ham mos tushmasligi mumkin: bir xil belgi bir necha vazifaga ega bo'lishi, bir xil mazmun bir necha belgi orqali ifodalanishi mumkin. Har qanday belgi bir vaqtning o'zida potensial “omonim” va “sinonim”dir. Ya'ni ular aqliy hodisalarning bu ikki qatorining kelishuvidan iborat [2; 85-90].

Omonimik va omosemik birliklarning asimmetrik dualizmi til tizimida bir qancha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. “Shuning uchun, – deydi Skalichka, har bir til turli yo‘llar bilan turli darajada bu muammoni chetlab o‘tishga harakat qiladi” [4; 119-127]. Uning fikricha, chex tili rivojlangan asimmetrik dualizmga ega bo‘lgan til hisoblanadi. Bu tilda asimmetrik dualizmga muhim vazifa yuklanadi, chunki lisoniy belgini o‘rganishda uning ahamiyati katta. Turkiy tillar esa asimmetriyaga kam beriluvchi tillar sirasiga kiradi [4; 119-127].

Praga lingvistik to‘garagiga a‘zo bo‘lgan olimlarining kuzatishlaricha, qo‘shimchalarning (fleksiyaning) omonimik va omosemik imkoniyati o‘zakka nisbatan kengroq. Ma’noga ega bo‘lgan eng kichik lisoniy birlikka nisbatan Praga maktabi olimlari *sema* terminini qo‘llaydilar. Semaning shakliy qurshovini ifodalash uchun esa *morfema* termini qo‘llaniladi. Bir morfema bir qancha semani ifodalashi va u omonimiyani keltirib chiqarishi ta’kidlangani holda, omosemiya, ya’ni bir semaning bir necha morfemalar orqali ifodalanishi kam uchrovchi hodisa ekanligi uqtiriladi. Asimmetrik dualizmning til sathlarida amal qilishini kuzatar ekanlar, tilning akustik-motor tomoni ham o‘zining sema-morfema sathida turuvchi birligiga egaligi va bunday birlik bo‘g‘in ekanligi aytiladi. Demak, dualizm universal hodisa sanalib, uni tilning barcha sathlarida kuzatish mumkin.

Tilning barcha sath birliklarida dualizmning namoyon bo‘lishini tahlil qilar ekan, Vladimir Skalichka jumla (высказывание) sathida asimmetrik dualizmning amal qilishi mumkin emasligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, gaplar birlashib, jummalarni hosil qiladi. Jumla til tizimining yuqori sath birligi sanaladi. Ular o‘ziga yaqin quyi sath birliklari – gaplar singari klishe-gaplar¹ orqali ifodalanadi. Shu sababli jumla alohida formal tavsifga muhtoj emas. [4; 119-127]

Bizga ma’lumki, quyi sath birliklari yuqori sath birliklari uchun qurilish materiali bo‘lib xizmat qiladi. Ularning sintagmatik munosabatga kirishishi asosida yuqori sath birliklari hosil bo‘ladi. Bunga muvofiq, quyi sath birliklarining o‘zgarishi

¹ V.Skalichka fikricha, gaplar, odatda, klishe gaplar orqali ifodalanadi. Har bir tilda gap qurilishining o‘ziga xos tiplari mavjud bo‘lib, ular klishe deyiladi.

yuqori sath birliklarining ham o'zgarishiga turtki bo'ladi. Shu bois Vladimir Skalichkaning yuqoridagi fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi.

O'zbek tilshunosligida ham lisoniy birliklarning semantik va sintaktik munosabatlari masalasida diqqatga sazovor tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, professor N.Mahmudov tomonidan o'zbek tilida sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya masalasi monografik planda o'rganilgan, ergash gapli qo'shma gaplarda shakl va mazmun munosabati haqida ham ma'lumot berilgan [3; 148]. Shu bilan bir qatorda, o'zbek tilining turli sath birliklarida shakliy va mazmuniy nomuvofiqlik masalasiga doir A.Nurmonov, D.Lutfullayeva, M.Mirtojiyev, A.Berdialiyev, A.Sayfullayeva, A.Mamajonov, M.Xolboyeva, R.Abdusamatov, M.Mamatov, N.Ahmedova, M.Haynazarovalarning ishlari ana shunday izlanishlardan bo'lib, ular o'zbek tilida lisoniy birliklar o'rtasidagi asimmetriya hodisasi va unga olib keluvchi holatlarni tadqiq qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, o'zbek tilshunosligida qo'shma gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya va mazkur hodisani yuzaga olib keluvchi holatlar masalasi monografik planda o'rganilmagan.

O'zbek tilshunosligida prof. N.Mahmudov sodda gaplarda shakl va mazmun munosabatini tahlil qilar ekan, sodda gap doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik tildagi tejash tamoyilining amal qilishi sifatida namoyon bo'lsa, qo'shma gaplardagi bunday nomuvofiqlikning zamini tildagi ortiqchalilik tendensiyasiga borib taqalishini ta'kidlaydi [3; 148]. Uning fikricha, bir denotativ voqea ifodalangan ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik har doim mavjud bo'ladi va buning yuzaga kelishi tildagi ortiqchalilik tendensiyasiga borib taqaladi.

Shu o'rinda bir mulohaza tug'iladi. Sodda gap doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlikning tildagi tejash tamoyili asosida yuzaga kelishini e'tirof etish mumkin, lekin qo'shma gap doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik-ning yuzaga kelishini faqat ortiqchalilik tendensiyasi bilan bog'lash to'g'ri emasdek ko'rinadi. Chunki bir qarashda ortiqchadek tuyulgan bo'lak – gap, masalan, *Bilamizki, reja bilan qilingan ish yaxshi natija beradi* gapidagi *bilamizki* qismi aslida qisqarishning eng

oxirgi nuqtasiga uchrashi natijasida paydo bo'lgan va qo'shma gapning modusiga aylangan. (*Biz juda yaxshi bilamiz* → *biz yaxshi bilamiz* → *biz bilamiz* → *bilamiz*). Dastlab bu bo'lak mustaqil gap sifatida borliqdagi biron-bir voqea-hodisa haqida ma'lumotga ega ekanlikni ifodalovchi propozitsiyaga ega bo'lgan. Shuning uchun ergashgan qo'shma gaplarning mazmuniy-sintaktik nomuvofiqligini faqat ortiqchalik bilan emas, tejash tamoyili bilan ham asoslash mumkin, ya'ni ortiqchalilik tejash natijasida yuzaga keladi.

Ma'lumki, shakl va mazmun har bir ma'noli birlikda dialektik aloqada bo'ladi. Ular o'zaro zich bog'liq bo'lishiga qaramay, har qaysisi o'ziga xos ichki tuzilishga ega. Shu bilan birga, bu ichki tuzilishni bir-biridan ajratib, alohida-alohida, bir-birisiz o'rganish ham mumkin emas. Shuning uchun F. de Sossyur lingvistik belgining ifodalovchisi bilan ifodalanmishini daftar varag'iga o'xshatgani holda, varaqni ko'ndalangiga ikkiga ajratish mumkin bo'lmaganidek, ifodalanmish bilan ifodalovchini ham bir-biridan ajratish mumkin emasligini ta'kidlagan edi [5; 70].

Ko'rinadiki, lingvistik birliklar mohiyatini aniqlashda uning ham shakliy, ham mazmuniy jihatlariga tayangan holda ish ko'rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aytbayev D.T. O'zbek tilidagi qo'shma gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. Folol. fan. dokt. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 77 b.
2. Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака. В книге: Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. – М.: Просвещение, 1965. – С. 85-90.
3. Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда синтактик-семантик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 148.
4. Скаличка В. Асимметричный дуализм языковых единиц. Пражский лингвистический кружок. – М.: Прогресс, 1967. – С. 119-127.
5. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С.70.